

O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, VAZIFADOSHLIK, SINEKDOXA.

Xolmurodova Barchinoy Nurmamat qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti ona tili va

adabiyoti ta'limi fakulteti

3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Bu maqolada o'zbek tilidagi ma'no ko'chish turlari, ularning tasnifi haqida ma'lumot berilgan. Metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik haqida ma'lumot va misollar orqali yoritilgan. O'quvchilarga oson usulda tez yetqazish maqsadida topshiriq va metodlar bilan ham tanishasiz.

Kalit so'zlar: metafora, metanomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, trop.

Kirish

Ma'no ko'chish turlari darsliklarda boshqa mavzularga qaraganda qiziqarli tuyiladi. O'quvchilarga qizg'in topshiriq va o'qituvchi o'z usuliy metodaridan foydalansa bo'ladi. Ma'no ko'chish turlari to'rt turga bo'linib, bular: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik turlariga kiradi. So'zlarda ikkita ma'nosi bo'lib, so'zlar o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda kelishi mumkin.

Masalan:

1. Hayot yo'li mashaqqatli (bu gapda yo'l - hayot jarayoniga o'xshatilgan)metafora usulida ma'no ko'chgan.

2. Sinf qarsak chaldi (ya'ni bu so'zimizda sinfdagi bolalar nazarda tutilmoqda) metonimiya usulida ma'no ko'chgan.

3. Ona yurtning seni chaqiryabdi (bunda esa yurtdagi aholi nazarda tutilmoqda) sinekdoxa usuli

4. Samalyotning dumi (itning dumi bo'ladi. Bu so'zimizda dum vazifasini bajargani uchun ham ma'no ko'chmoqda) vazifadoshlik.

Qanday qilib o'z yoki ko'chma ma'noda kelayotganini ajratsak bo'ladi desak, matndagi so'z yakka holatda ham matn ichida ham bir xil ma'no anglatga bunday so'zlar o'z ma'nosida kelyabdi. Agarda boshqa ma'no anglatga bunday so'z ko'chma ma'noda kelayotgan bo'ladi. Bularni bir qancha misollar orqali tushuntirib o'taman.

Masalan:

- A) Zal oyoqqa turdi.
- B) Navoiyni qo'limga oldim.
- C) Bedilni o'qidim.
- D) Ko'zlari meni kuzatadi.
- E) Oqsoqollar so'zga chiqdi.

Bu misollarni tahlil qilmoqchi bo'lsak, birinchi misolimizdagi zal so'zini yakka holatda olsak, zal ko'p kishilik sig'adigan keng xona, ammo bu so'zda "zal oyoqqa turdi" zalda oyoq yo'q ya'ni zaldagi odamlarni nazarda tutyabdi. "Navoiyni qo'limga oldim" Navoiyni yakka holda olsak, bir shaxsning ismini ko'rishimiz mumkin, ammo gap holida esa Alisher Navoiyning asari nazarda tutilyabdi. So'zlarning ikki ma'nosini o'z va ko'chma ma'nosini bilib oldik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Trop deb bir narsaaning nomini, belgisini boshqasiga ko'chirish yoki nutqda so'z va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishiga aytiladi.

Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki shaxsni tushunchani, narsani, hodisani va ularning belgisini qiyos qilish, o'xshatish troplarga asos qilib olinadi¹.

Quyda har bir tropning tavsifini keltiramiz.

METAFORA—grekcha so'z bo'lib, ko'chim degan ma'noni bildiradi. Nutqqa obrazlilik, ekpressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasida o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir. Masalan, bolalar mamlakati—bolalalik, anor yuz—qizil yuz, quyoshli qalam—ijod kabi.

Metafora tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Sodda va kengaygan. Sodda metafora birgina so'z, kengaygan metafora ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi. Masalan, ko'k (osmon), xo'roz (mard odam), bahor elchisi (boychechak), Nizomiyniing vatani (Ozarboyjon).

METONIMIYA- grekcha so'z bo'lib, boshqa nom berish degan ma'noni bildiradi. Bir narsaning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o'zaro bog'liqlik asosida ko'chirilsa, metonimiya yo'li bilan ko'chish deyiladi.

Fuzuliyini oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi

Va Navoiy tushib yo'limga, faryod bilan o'rnidan turdi.

Lermontovni tashlamadim hech, axir qo'yib oldim Xofizni,

Pushkin menga ko'rsatar har kech, yig'lab turgan bir chersak.

(Hamid Olimjon)

SINEKDOXA- Sinekdoxa narsalarning butun va qismlari orasidagi munosabat

nazarda tutiladi. Bunda butun o'rnida qism va aksincha, qism o'rnida butunning nomi ishlatiladi. Masalan, Besh qo'lingni og'zingga tiqma(maqol).

¹ O'zbek tili silitistikasi. T. O'qituvchi, 1983

O'XSHATISH- bunda ikki narsa yoki voqia-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisi, mohiyati to'laroq bo'rttiribroq ko'rsatadi. O'xshatishda quyidagi tushunchalar bo'ladi:

- 1) O'xshatilgan predmet;
- 2) O'xshatilgan narsa;
- 3) O'xshatilgan vosita;

Masalan, Meni shersiz deding, yovlar quyondir,

Quyonlarning ishi senga ayondir.

Ma'no ko'chishi turlari—metafora, metanomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi tilshunoslik kategoriyalari-o'quvchilarning tilshunoslik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Umum ta'lim maktablar quyi sinflarda ko'p ma'noli so'zlar o'rganiladi. Ma'no ko'chish turlari 11-sinf darsligida berilgan. Biroq 1-2 soat dars jarayonida ushbu mavzuni o'zlashtirish biroz murakkablik qiladi. O'qituvchidan pedagogik mahorat va zukkolik talab etiladi. Ushbu tushunchalarni o'qitishda mustahkamlash darslarida didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va mavzuni chuqurroq o'zlashtirishi mumkin.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan, bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradigan metodlardir. Ular orqali o'quvchilar:

- Mavzuni o'zlashtirishda faol ishtirok etadilar.
- O'zaro hamkorlikda ishlashni o'rganadilar.
- Ijodiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradilar.
- O'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rganadilar.

Tavsiya etiladigan metodik tavsiyalar.

1."Qaysi ko'chish turi?" O'quvchilar guruhlariga bo'linadi.Har bir guruhga jumlarlar yozilgan kartochkalar beriladi.Ular bu jumlada qanday ma'no ko'chish ishlatilganini aniqlashlari kerak.

Masalan:

- Quyosh ertalabdan charaqlab kuldi. (Metafora)
- Firdavsiyni qo‘ldan qo‘ymasdi. (Metanomiya)
- Qushlar olchaga qo‘ndi. (Sinekdoxa)
- Qani, professor" mavzuni siz ayting-chi. (Kinoya)
- Stolning oyog‘i singaniga ancha bo‘ldi. (Vazifadoshlik)

2."Topib yoz" Tashkil etilishi: Duskaga har xil vaziyatlar yoki so‘zlar yoziladi.

O‘quvchilar shu vaziyatlarga mos ma’no ko‘chishi asosida gaplar tuzishadi.

Misollar:

- Shivirladi- Shamollar shivirladi sening haqingda.(Metafora)
- Oybek-U Oybekni qayta -qayta o‘qir edi.(Metonimya)
- Qo‘l- Besh qo‘l barobar emas.(Sinekdoxa)
- Chiroq-Uyining chirog‘i yonmaganiga ko‘p bo‘ldi (Vazifadoshlik).
- Maqsadi: Yozma nutqda ma’no ko‘chishni amalda qo‘llashga o‘rganish.

3."O‘zing top—o‘zing tahlil qil"

Tashkil etilishi: O‘quvchilar o‘zlarining nutqidan, biror badiiy asarlar(she’r yoki hikoyalar)dan ma’no ko‘chish turlariga misollar topishadi ,duskaga yozib, butun sinf tahlil qilishadi.

Bundan tashqari "Rolli o‘yinlar", "Sahnaishtirilgan o‘yinlar", shuningdek "Aqliy hujum usuli" kabi metodik yondashuvlarni qo‘llash ham yaxshi samara beradi.

NATIJALAR: Didaktik o‘yinlar yordamida:

- Darslar qiziqarli va faol o‘tiladi.
- O‘quvchilar mavzuni chuqur anglaydi.
- Nutqiy faollik ortadi.
- Mustaqil, ijodiy, tahliliy fikrlash rivojlanadi.
- Matnni o‘qish savodxonligi oshadi.

- Mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'.Z.Yo'ldoshev- "Umumiy tilshunoslik".
- 2.Rasulov A.- Tilshunoslik asoslari.
- 3.S.Madvaliyev- "Til va tafakkur"
4. Shu.Rahmatillayev- "O'zbek tilining leksikologiyasi".
5. Normurodov B. Quronboyeva D.-"Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish metodikasi
6. Ona tili darsligi (11-sinf) N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G. Sh. Ziyodullayeva.
- 7.Ona tili.(11-sinf) B.Mingliyev, Sh.Toshmirzayeva, S. Atayeva, S.Majidova